

ЎЗБЕКИСТОН “МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ” ДЕМОКРАТИК ПАРТИЯСИ

**“МИЛЛИЙ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШДА
НАВОИЙ ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ”
МАВЗУСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
I-Тўплами**

ТОШКЕНТ – 2021

Ўзбекистон “Миллий тикланиш” демократик партияси томонидан Алишер Навоий таваллудининг 580 йиллигига бағишлаб ўтказилган “Миллий ўзликни англашда Навоий ижодий меросининг аҳамияти” мавзусидаги илмий-амалий анжуман тўплами. – Тошкент: 2021 йил.

Ушбу тўпланда мамлакатимизнинг етакчи навоийшунос олимлари, олий таълим муассасаларининг профессор-ўқитувчилари томонидан “Инсон ўзгарса – жамият ўзгаради” ғояси асосида тараққиётнинг янги босқичи – Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишда Алишер Навоийнинг беназир адабий мероси, шунингдек фаолиятини чуқур ўрганиш ва оммалаштиришга қаратилган илмий-амалий таклиф ҳамда тавсиялар тақдим этилган.

ТАҲРИР КЕНГАШИ:

А.Қодиров	Ўзбекистон “Миллий тикланиш” демократик партияси Марказий кенгаши раиси
Ф.Мухамеджанова	Ўзбекистон “Миллий тикланиш” демократик партияси Марказий кенгаши раиси ўринбосари
О.Давлатов	Тошкент давлат шарқшунослик университети ўқитувчиси, филология фанлари бўйича фалсафа доктори
Ш.Султанова	Ўзбекистон “Миллий тикланиш” демократик партияси Марказий кенгаши бўлим бошлиғи

Тўпландаги матнлар, фойдаланилган мисол, кўчирма ва маълумотлар учун муаллифлар масъулдир.

5. Тульчинский Г.Л. Цифровая трансформация образования: ВЫЗОВЫ высшей школе. Цифровая цивилизация: вызовы и трансформации современности. ФН 6/2017.

file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram%20Desktop/RJPS_2017-06_Tulchinskiy.pdf

MENTAL XUSUSIYATGA EGA EVFEMIZM VA DISFEMIZM HODISALARINI O‘ZBEK TILINING ELEKTRON KORPUSINI YARATISHDAGI AHAMIYATI

Xurshida Qodirova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

O‘zbek tili kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n.

O‘zbekistonda barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan islohotlarning samarasi o‘laroq keyingi qisqa vaqt ichida mamlakatimizning intellektual salohiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz bermoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun “ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratish” hisoblanadi. Bungacha ham ta’lim tizimida “Nega o‘qitaman?”, “Nimani o‘qitaman?”, “Qanday o‘qitaman?”, degan savollar pedagog olimlarni o‘ylantirib kelgan. Ko‘p yillar davomida ular “Qanday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin”, degan savolga ham javob qidirganlar. Bu esa o‘quv-tarbiyaviy jarayonda zamonaviy o‘qitish uslublari, ya’ni interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi.

Muayyan tilni tushuntirishda madaniyati, urf-odati, so‘zlashuv qoliplari va an’analarini inobatga olib, qiyosiy tahlillar, etimologik va tarixiy belgilar, go‘zal badiiy asarlardan foydalanish samarali natijani beradi. Zero, o‘zga tilli shaxsda

muayyan til vakilining mental madaniyati haqidagi to‘g‘ri tasavvurni badiiy asarlar orqali uyg‘ota oladi deb aytishimiz mumkin. Bu borada iqtidorli yozuvchi Abdulla Qodiriyning asarlari yorqin misol bo‘la oladi. Davrining mashhur felyetonchisi sifatida tanilgan Abdulla Qodiriyning asarlari ta’sirchan til birliklaridan tarkib topgan. Milliy mentalitet ifodasida evfemizmga bo‘lgan ehtiyojdan yozuvchining nobop voqelik yoki shaxsni salbiy bo‘yoq bilan berish, haqiqatni ro‘y-rost tasvirlash istagi ustun kelib, qo‘pol, noo‘rin til birliklari bilan o‘sha zamon nosoz siyosati, nomaqbul kishilari tanqid ostiga olinadi. Go‘yoki bu bilan ularga kuchli zarba beriladi, axloqiy mezonlar bilan muvofiqlashishga – tarbiyaga chaqiriladi. Abdulla Qodiriyning tildan foydalanish mahorati aytish nojoiz bo‘lgan birliklarni muloqot mezonlariga mos berish bilan birga, unga munosib “to‘n” ham kiydirib, ba’zan kesatiq, piching, kinoya yordamida disfemik birliklardan foydalana olganligida ham ko‘rinadi.

Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma’nosi bo‘lib, u evfemizatsiyaga zid turadi. Buning sababi – disfemizatsiya hodisasining ba’zan ijtimoiy, ba’zan esa individual sterotiplar bilan bog‘lanishi. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy qo‘llanish differensiatsiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, o‘z navbatida, kontekstual ma’nodoshlik qatorining boyishini ham ta’minlaydi. Matn, bog‘liq qurshov va nutqiy vaziyat ma’nodoshlik qatori muvaqqat a’zolarining shu qatordagi o‘rnini belgilovchi ijtimoiy omillarni mustahkamlovchi vositadir.

Badiiy nutqdagi disfemizatsiyani individual usul (priyom) sifatida baholash mumkin. Bu individuallik evfemizmdagi individuallikka nisbatan birmuncha ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Faqat ***“pragmatika nuqtayi nazaridan tegishli til vositasining evfemikligi yoki kakofemikligi kuzatuvchi (tinglovchi)ga bog‘liq bo‘ladi”*** (A.Dabrowska). Masalan, ko‘pgina yevropa tillarida uchraydigan *fransuz kasalligi* (sifilis) evfemizmi boshqa til vakillari tomonidan evfemizm sifatida, ayrim etnik muhitda disfemizm sifatida qaralishi mumkin. *Швады, французы, прысаку* atamaları “hasharot” ma’nosida ham evfemizm, ham disfemizm sifatida qabul qilinishi mumkin”. Zero, birliklardagi disfemik ma’no faqat muayyan makon

va zamon bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi va shu asosda idrok etiladi. Disfemik ma’no, evfemizmlarda bo‘lgani kabi, asosan, etnik stereotiplar bilan bog‘lanadi va belgilanadi.

Evfemizm deb qaralayotgan birlik kishida disfemik taassurot uyg‘otayotgandek tuyuladi. Bu tabiiy. Polisemantik, ayni vaziyatda, insonga nisbatan qo‘llanilayotgan *it* so‘zi har ikki holatda ham haqoratni bildiradi. Bu esa disfemizmning shartlaridan biri. Biroq, davr muhiti, so‘zlovchi madaniyatidan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, “harom bo‘lmoq” ma’nosini aynan ifodalash obraz xarakteriga mos bo‘lmaganidan *it tegdi* evfemik ma’noli birligi qo‘llanadi. Chunki o‘sha davr muhitida islom hukmron mafkura bo‘lgan bir sharoitda *harom bo‘lmoq* juda qo‘pol, o‘ta noxush ifoda sifatida qaralgan. Harom qilingan narsa shariat arkonlariga muvofiq qattiq taqiqlangan, demak, bu so‘zni ishlatish ham evfemizatsiyani taqozo qilganligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Unga nisbatan juda nozik bo‘lmasa-da, boshqacha aytish u darajada qiyin bo‘lmagan variantini qo‘llash ehtiyoji tug‘ilgan bo‘lsa, ajab emas. Ikkinchisida ham aytishga tili bormaslik holati mavjud, biroq bu o‘rinda O.V.Potapova ta’kidlaganidek, insonning itga mengzalishi tinglovchi nuqtayi nazarida disfemik taassurotli bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda disfemizatsiya stsenariysi bir necha bosqichdan iborat ekanligiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. *Birovni majbur qilishi* – voqelikning asl atamasiga nisbatan evfemik libos, biroq *birovning nomusiga tegishi* birikmasiga nisbatan esa disfemik, *nomus buzilgan* birikmasiga nisbatan *it teggan* iborasi disfemikdir. Ko‘rinadiki, garchi nutqiy xarakterga ega bo‘lsa ham, bir denotativ mazmun ifodalovchi evfemik va disfemik birliklarni o‘zaro qiyoslash asosida ularning nisbiy evfemiklik va disfemiklik qiymati baholanadi. Demak, mazkur birliklarga munosabat bildirganda nisbiylik tamoyiliga tayanish maqsadga muvofiq. Muallifning yuqoridagi ma’noni uqishni tinglovchiga havola qilishida, aytilganidek, etnik stereotiplarga bog‘lash bilan birga, uning til bilimi ham rol o‘ynashiga zimdan ishora borligini ko‘rish mumkin.

Ch.Abdullayeva “Особый интерес в этой связи представляют исследования в области фразеологии которая наиболее ярко отображает своеобразие жизни того или иного народа его культуру, традиции, менталитет и особенности национального мировоззрения. По этому знание фразеологических единиц становится неотъемлемой частью владение языком”, deya yuqoridagi fikrlarga monand munosabat bildiradi va “qora” rang bilan bog‘liq uch (o‘zbek, rus va ingliz) tildagi frazeologik birliklarni tahlil qiladi. Ammo ma’no jihatdan katta farq yo‘qligini ta’kidlaydi (masalan, black season ~ чёрный день ~ qora kun). Demak, qora rang bilan bog‘liq evfemik va disfemik xususiyat aksariyat tillarda bir xil, faqat ayrim belgilari bilangina farqlanadi degan xulosa chiqarish mumkin. Masalan, qora mushuk bilan bog‘liq vaziyat, o‘zbek, xususan, islom dini vakili uchun hech qanday yoqimsiz kayfiyat uyg‘otmasligi ma’lum. Shu kabi holatdan vaziyat yaratish mumkin.

Ozarbayjonning mashhur yozuvchisi Anor qalamiga mansub “Qizil limuzin” asarida urf bilan bog‘liq jarayon – hissiy kechinmalar aks etadi. Qahramonning go‘yoki uni ta’qib etayotgan qizil limuzin nega shu qadar xavotirga solishini boshqa qit’a vakili anglab yetishi mushkul. Sababi yevropa xalqining odatiga ko‘ra, murdani limuzinda olib yurulishi ayrimlar uchun qorong‘u. Qizil esa qon rangi. Shunday ekan, nafaqat millatlar, balki guruhlar, muayyan regionlar aholisi o‘rtasida ham shunday vaziyatlarga duch kelish mumkinligini talabalar bilan vaziyat yaratish orqali mashg‘ulot olib borish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zga tilli talabaning tasavvurlari qamrovini nafaqat til birligi, balki shu birlik bilan bog‘liq evfemizm va disfemizm hodisalarini muhit, so‘zlovchining ijtimoiy darajasi, ob’yekt va subyektning tafakkur darajasini hisobga olgan holda tushunishini, anglashini ta’minlash muhim masala hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi talabadan shunday misollarni topib, uni tahlil qilishini hamda shunday vaziyatni guruh bilan instsenirovka qilishini so‘rash orqali samarali natijaga erishishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Ч.Б. Лингвокультурологический аспект цветообозначений. //ЎзМУ хабарлари, №4/1 - Тошкент, - 2013 й.
2. Ishmuhammedov R., M.Yuldashev. Ta'lim tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: “Nihol”, 2013-y.
3. Потапова О.В. Языковые этнические стереотипы и их представление в белорусской, русской и польской лексикографии XIX века: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Минск, 2005.

O‘ZBEK TILINING TA’LIMIY KORPUSI KONTENTINI YARATISH XUSUSIDA

Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti dotsenti, f.f.d. (PhD)*

Xayrullayeva Gulshoda, 4-kurs talabasi

Ayni paytda o‘zbek tilining milliy korpusini yaratish ustida ishlar olib borilmoqda. Biroq o‘zbek tilini ta’limda korpus ko‘rinishida foydalanoshning turli til texnologiyalari (ilovalari) yordamida ham foydalanish mumkin. AntConc dasturi shu maqsadga yo‘naltirilgan universal uskuna bo‘lib, uni internet tizimi orqali yuklab olib, offlayn rejimda foydalanish mumkin. Dastlab korpus kontentiga mos saralab olingan asarlar .txt formatda texnik talablarga mos ravishda muayyan mezonlarga (janr, yozuvchi tomonidan yaratilgan davr (yillar), grafikasi (lotin yoki kirill) va b.) ko‘ra tasniflanadi. AntConcning o‘ziga xos funksiyalariga matnning chastotasi, konkordansi, so‘z shakllari va matnda uchraydigan so‘zlarning umumiy ro‘yhatini berish kabilar kiradi. Shuni alohida qayd etish joizki, korpus bazasiga kiritilgan tayyor matnlar foydalanuvchi tomonidan oldindan lingvistik jihatdan tahlil qilingan bo‘lishi shart. Aks holda tilni o‘rganivchilari uchun ayrim murakkab

тамойиллари	
Ж.Музрабова. “Ҳамлет” трагедиясининг лингвопоэтик хусусиятлари	205-208
Э.Жабборов. Имлога эътибор – илмга эътибор	208-212
Б.Баҳриддинова. Миллий бойликлар ичра энг бебахоси	213-220
Л.Ўроқова. Изоҳли луғат нафақат мутахассисларда, балки ҳар бир хонадонда бўлиши керак	221-226
Q.Olloyorov,, Sh.Madiyorov. Xorazm dostonlari onomastikasining leksik qatlamlari masalasiga doir	227-233
Д.Юлдашев. Замонавий ўзбек номшунослигида антропоцентризм	233-240
Р.Маҳмудов. Огаҳий тарихий асарларида археоантропонимлар	240-248
Б.Қараева. Хорижда ўзбек тилини иккинчи чет тили сифатида ўрганиш жараёнида бадий матнлар устида ишлаш методлари	249-256
Ҳ.Мирзахмедова. Ўзбек ва форс тилида арабий муштарак сўзларнинг ишлатилиши	256-266
Г.Нуруллаева. Тил – миллат кўзгуси	266-268

II ШЎЪБА: ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ЭЛЕКТРОН КОРПУСИНИ ЯРАТИШНИНГ ДОЛЗАРЪЛИГИ

N.Abdurahmonova. O‘zbek tili korpusi til texnologiyasining lingvistik resursi sifatida	269-273
Б.Менглиев, Ш.Ҳамроева. Морфологик маълумотлар базаси тил корпусининг лингвистик таъминоти сифатида	273-277
З.Худайбергенова. Хорижда ўзбек тилининг ўқитилишида рақамли технологияларнинг татбиғи тажрибаси (туркия университетлари мисолида)	277-282
X.Qodirova. Mental xususiyatga ega evfemizm va disfemizm hodisalarini o‘zbek tilining elektron korpusini yaratishdagi ahamiyati	283-287
N.Abdurahmonova, G.Xayrullayeva. O‘zbek tilining ta’limiy korpusi kontentini yaratish xususida	287-290
O.Nasirdinova. Ikkinchi (b1) til darajasining ceFr(1) va davlat ta’lim	291-296